

Date: 25th April-2025

O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGI.

Yo'ldosheva Gulhayo Qahramon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalish 3- bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davr o'qituvchisining kommunikativligi ta'lim jarayonidagi yangiliklarni qay darajada qo'llayotganligi hamda kasbiy mahoratining o'rni va uni amaliy jarayonda qo'llashi haqida.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, texnologiya, bilim, ko'nikma, malaka, nutq, kreativlik.

Аннотация: В статье рассматривается степень использования коммуникативной компетентности современного учителя инноваций в образовательном процессе, а также роль профессиональных навыков и их применение в практическом процессе.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, технология, знания, умения, навыки, речь, креативность.

Abstract: This article discusses the extent to which the communicative competence of the modern teacher uses innovations in the educational process, the role of professional skills and their application in the practical process.

Keywords: competence, professional competence, technology, knowledge, skills, competence, speech, creativity.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi demakdir.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni ang'lay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.



Date: 25th April-2025



Kasbiy kompetentlik - ko'p qirrali va ko'p jihatli tushuncha, u jamiyatda sodir bo'luvchi o'zgarishlarga mos ravishda o'zgaradi hamda turli nuqtayi nazarlar ostida ko'riladi. O'qituvchining "kasbiy kompetentligi" tushunchasi mazmuniga zamonaviy yondashuvlar tahlili ko'rsatishicha, mazkur muammo hozirgi vaqtda uning talqiniga turlicha mazmun baxsh etuvchi, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan faol o'rganilmoqda. Ye.V. Bondarevskaya kasbiy kompetentlik tushunchasini uning asosiy komponenti hisoblangan, "ta'limda hunarmandni" emas, balki yuqori madaniyatli mutaxassisni shakllantirishga yordam beradigan "pedagogik madaniyat" tushunchasi bilan bog'laydi.

Kasbiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari

1. Pedagogik kompetentlik – o'quvchilarning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish qobiliyati.
2. Metodik kompetentlik – fan mazmunini samarali yetkazish, o'quv dasturlarini to'g'ri tuzish, dars rejasini ishlab chiqish.
3. Axborot-kommunikatsion kompetentlik – zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish, masofaviy va interaktiv darslarni tashkil qilish ko'nikmalari.
4. Innovatsion kompetentlik – yangi metodlar, texnologiyalarni o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash.
5. Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik – jamoa bilan ishlash, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot olib borish.

Tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida kompetentsiyaning turli ta'lim yo'nalishlarida turli jihatdan tahlil qilishgan. N.A.Muslimov bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini shakllantirishda tayanch, umumiy va maxsus kompetentlik darajalarini shakllantirish muhimligini aniqlaganlar. Tayanch kompetentliklar -ta'lim oluvchining ta'lim jarayoni nihoyasida ega bo'lgan barcha tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalaridir. Xulq-atvori va fikrlashi keng ma'nodagi "kompetentlik" tushunchasiga kiritiladi. Ta'lim jarayonining maqsadi ta'lim oluvchining kompetentliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish hisoblanadi.

Dj. Raven kompetentlikni biror bir ob'yekt yoki ob'yektlar sinfiga ko'ra biror sohaga tegishliligi bilan baholash kerak - deb hisoblaydi. Natijada ma'lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo'ladi. U shaxs kompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilgan holdagina aniqlanishi ma'noga ega bo'ladi - deb tushuntiradi.

Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o'qituvchisidan yuqori madaniyat, chuqur ma'naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas'uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo'lishi, o'z o'quvchilarining ijodiy potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o'z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Shu sababli, komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya'ni mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o'ta muhim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya'ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash - kompetentli yondoshuv deyiladi.

Xulosa

Date: 25th April-2025

O'qituvchining kasbiy kompetentligi – ta'lim sifatini oshirishda asosiy kalitlardan biridir. Kompetent o'qituvchi zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim ishtirokchisidir. Shu bois, o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va ta'lim sifatini oshirish"ga doir qarorlari.
2. UNESCO (2020). Teaching and Learning in the 21st Century.
3. Qodirova, M. (2022). "Pedagogik kompetentlik asoslari", Toshkent.
4. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy hujjatlari va nashrlari.
5. G'ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. "Ta'lim-tarbiya sifati va qirralari". T; «Fan va texnologiyalar». 2004.
6. MELIKBOBOYEVICH, S., QIZI, O., & QIZI, Q. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
7. Melikboboyevich, S. U., Zafar o'g'li, S. L., Eshqul o'g'li, S. J., & Abbos o'g'li, Q. N. (2025). SHAXSDAGI AGRESSIVLIKNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(3), 20-22.
8. www.ziyonet.uz
9. www.edu.uz
10. www.uzedu.uz.

